

## МАКТАБ DARSLIKLARIDA MORFOLOGIYA BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI

*Sharofat Abdiyeva Abduxalil qizi*  
*Samarqand davlat universitetining*  
*Kattaqo'rg'on filiali talabasi*  
*E-mail: sharofatabdiyeva14@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga ona tili darsligida berilgan morfologiya bo'limini qanday qilib o'tish kerakligi, shu mavzuga doir turli xil metodlar va ularni dars davomida qo'llash texnikalari haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается, как пройти раздел морфологии, заданный школьникам в учебнике родного языка, различные приемы по этой теме и приемы их использования на уроке.

**Annotation:** This article discusses how to pass the morphology section given to school students in the mother tongue textbook, different methods on this topic and techniques for using them during the lesson.

**Kalit so'zlar:** Morfologiya, darslik, 500 soat, so'z turkumlari, amaldagi darslik, so'zlarning turkumlarga bo'linishi, mezonlari, malaka va ko'nikma, shaxs-son qo'shimchalari, so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolari, 5/5 6/6 metodi, rasm orqali o'tish metodi,

**Ключевые сло:** морфология, учебник, 500 часов, категории слов, практический учебник, деление слов на категории, критерии, квалификации и навыки, суффиксы человекочисл, словарные и грамматические значения слов, метод 5/5 6/6, метод прохождения через картинки

**Key words:** Morphology, textbook, 500 hours, word categories, practical textbook, division of words into categories, criteria, qualifications and skills, person-number suffixes, dictionary and grammatical meanings of words, 5/5 6/6 method, method of passing through pictures

Maktab darsliklarida „Morfologiya“ bo'limi uchun 5-sinf ona tili darsligida qisman, 6-7-sinf darsliklarida esa to'liq ajratilgan. Demak, o'quvchi ham, o'qituvchi ham 5-sinf dan boshlab to 8-sinf gacha (qariyb 500soat) so'z turkumlari bilan bog'liq mavzular ta'limi bilan shug'ullanishadi.

Amaldagi „Ona tili“ dasturida 5-sinf da, asosan, o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan zaruriy morfologik bilimlar sifatida quyidagilar qayd etiladi:

So'zlarning turkumlarga bo'linish mezonlari

- „Mustaqil so'z turkumlari“ (fe'l, ot, sifat, son, olmosh, ravish),

-„Yordamchi soʻz turkumlari” (bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama, undovlar, modal soʻzlar, taqlid soʻzlar)

-„Ot va uning lugʻaviy maʼnosi”

-„Otning morfologik belgilari va sintaktik vazifasi”

-„Otning maʼno turlari”

-„Atoqli otlarning uslubiy qoʻllanishi”

-„Otlarda son shakllari”

-„Koʻplik qoʻshimchasi”

-„Turlanish”

-„Kelishiklar”

-„Egalik qoʻshimchalari”

-„Otlarning tuzilish jihatidan turlari” (sodda, qoʻshma, juft)

-„Feʼl, va uning lugʻaviy maʼnosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi”

-„Boʻlishli va boʻlishsiz feʼl”

-„Feʼlning tuslanishi”

-„Feʼl zamonlari”

-„Oʻtgan zamon, hozirgi zamon, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon feʼllari”

-„Koʻmakchi feʼllar”

„Morfologiya” sathi nuqtayi nazaridan 5-sinf oʻquvchilari egallashi zarur boʻlgan malaka va koʻnikmalar dasturda shunday belgilangan: „soʻzlarning egalik hamda shaxs-son qoʻshimchalarini olib oʻzgarishini, soʻzning lugʻaviy va grammatik maʼnolarini, tub soʻzlar bilan yasama soʻzlarni; sodda, qoʻshma va juft soʻzlarni; soʻz turkumlarini, mustaqil soʻz bilan yordamchi soʻzni oʻz nutqida farqlab bilishi va oʻrinli ishlatib bilmogʻi kerak.

Oʻquvchilar dastlab soʻz turkumi haqida nazariy bilim bilan tanishadilar. Soʻzlarning soʻrogʻi va qanday umumlashgan maʼno ifodalashiga koʻra guruhlariga boʻlinishi soʻz turkumlari hisoblanadi degan qoida beriladi. Soʻzlar 5 ta guruhga boʻlib oʻrgatiladi. Dastlab oʻquvchilarga 1-guruh soʻzlar, yaʼni mustaqil soʻzlar turkumi oʻrgatiladi. Mustaqil soʻz turkumlari feʼl, ot, sifat, son, olmosh, ravish tartibida oʻrgatiladi. Mustaqil soʻz turkumlarini oʻrgatishda quyidagi jihatlariga eʼtibor berish lozim:

1. Soʻz turkumlarining soʻrogʻi, gapdagi vazifasi, bir soʻz turkumining boshqasidan farqi oʻrgatilishi kerak.

2. Har bir mashgʻulotda morfologik tahlil oʻtkazib borilishi lozim.

Morfologik tahlil quyidan yuqoriga qarab murakkablashib boradi. Soʻz turkumiga oid nazariy tushuncha berila borilgani sari morfologik tahlil ham kehgaya boradi. Koʻplab metodistlar, oʻqituvchilar soʻz turkumi oxirida shu turkum boʻyicha tahlil oʻtkazishni tavsiya qiladilar. Masalan, feʼl turkumi oʻrganib boʻlingach, feʼl soʻz turkumi yuzasidan tahlil oʻtkaziladi. Bizningcha, tahlilni har bir mashgʻulotda

yuqoridagi kabi quyidan yuqoriga qarab murakkablashtirib borish kerak. Masalan, 6-sinfda harakat va holat fe'llari o'rganilgach, o'quvchilar berilgan gapdan fe'lni topib, so'rog'ini aytadilar, uning harakat yoki holat ekanligini aniqlaydilar.

Oldingi yilgi maktab 5-sinf ona tili darsliklari morfologiya bo'limi fe'l so'z turkumidan boshlangan bo'lsa, 2020-yilga kelib esa ot so'z turkumidan boshlangan.

### 5-sinf o'quvchilari uchun Ot so'z turkumini o'qitish metodikasi

5-sinf ona tili darsligida berilgan ot mavzusi 1 dars uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda o'quvchi ot haqidagi mavzuni boshlang'ich ta'limda olgan bo'ladi va 5-sinfda ot mavzusi haqida umumiy ma'lumot berib o'tiladi. Masalan: Ot so'z turkumi kim? Nima? Qayer? so'roqlariga javob narsalarning nomini bildirib keladi. Bundan tashqari 5-sinf ona tili darsligida berilgan:

**Topshiriq.** Matnni o'qing. Shahobiddin Nasaviyning Jaloliddin Manguberdi to'g'risida yozgan fikrlariga diqqat qiling.

**Jaloliddin** qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, nutqi turkiy bo'lsa-da, forsiy tilda ham r **so'zlar** edi. **Shijoatli**, she'rlar ichra she'r edi. U adolatni **sevardi**. Jaloliddin o'ta qat'iyatli, nihoyatda **irodali**, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydigan, favqulodda **mard** va botir **sarkarda** edi.

Ushbu matnda qora yozuv bilan bir nechta so'zlar berilgan. Ularni orasidan faqatgina uch tasi ot so'z turkumiga oid, qolgani esa boshqa so'z turkumiga so'z turkumiga oid so'z sanaladi. Ot so'z turkumini boshqa so'z turkumlari bilan aralashtirib berilganligi sababi, o'quvchini ot so'z turkumini boshqa so'z turkumlaridan qay tarzda farqlay olishini ko'rsatib beradi.

Bundan tashqari, ot so'z turkumini yangicha metod, ya'ni 5/5, 6/6 metodi orqali o'tsa bo'ladi. Bunda o'qituvchi ot haqida o'quvchilarga tushuntirib bo'lgach, ularni haqiqatdan ham o'tni boshqa so'z turkumlaridan farqlay olishini tekshirish maqsadida o'quvchilarni uch guruhga bo'ladi va har bir guruhga oq varoq tarqatadi. U varoqda har xil so'z turkumlariga oid so'zlar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar yozilgan so'zlar orasidan faqat ot so'z turkumiga oid so'zlarni tez va to'g'ri bajarishi lozim bo'ladi. Tez ba to'g'ri bajargan guruhga o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

### 5-sinf o'quvchilari uchun sifat so'z turkumini o'qitish metodikasi

5-sinfda berilgan sifat mavzusi ham umumiy qilib berilgan. Lekin hech qanday qoidalar berilmagan. Bunda o'qituvchi tomonidan sifat mavzusi umumiy tarzda tushuntiriladi.

16-mashq. Sifatlarni ma'nosiga qarab jadvalga joylang va ularga izoh bering.

Rostgo'y, yolg'onchi, halol, or-nomusli, ayyor, ishbilarmon, o'jar, nodon, o'qimishli, dangasa, hayoli, odobli, g'ururli, xalqparvar, kamtar, janjalkash, kitobsevar, kaltafahm, adolatli, cho'rtkesar, betgachopar, uyquchi, besabr, andishasiz

Ushbu mashqda o'quvchilar quyida berilgan so'zlarni ijobiy va salbiyga ajratishi kerak.

Sifat mavzusini tushuntirishda o'qituvchi rasmiy metodlardan foydalanib o'tishi ham mumkin. Ya'ni biror biror bir otga doir bo'lgan narsani rasmini ko'rsatsa, o'quvchilar shu rasmdan biror-bir belgisiga qarab sifat aytadi. Masalan: o'qituvchi olma rasmini ko'rsatsa, o'quvchilar qizil, shirin sifatlarini qo'yishi mumkin, yoki bino rasmini ko'rsatsa, katta, baland sifatlarini qo'yishi mumkin. Ushbu metod guruhlariga bo'lib tashkil qilinsa yanada qiziqroq bo'ladi, Shu tarzda o'qituvchi o'quvchilarni darsdagi faolligiga va uddaburonligiga qarab rag'batlantiradi.

### 5-sinf o'quvchilari uchun son va olmosh mavzularini o'qitish metodikasi

Son va olmosh mavzusi ham 5-sinfda qisqa va umumiy tarzda berilgan. Dastlab o'quvchilarga son va olmosh haqida ma'lumotlar berilib, shu mavzuga doir mashq va topshiriqlar beriladi.

#### Topshiriq

Buxoro ko'chalarida xayolchan kezarkanman, **bir to'da** sayyohlar boshi bulutga chuig'angan minoraga qarab turishganini ko'rdim. **Ularga** bir kishi minora tarixini tushuntiryapti. Quloq soldim.

-**Yetti yuz yil** bo'lgan bu minoraning qurilganiga.

Sayyohlar hayrat bilan yoqalarini ushlaydi. Buxoro ko'chalarida kezarkanman, juda ko'p xotiralar xayolimdan o'tadi. Asrlar qa'rida qolib ketgan jang-u jadallarni ko'rgandek, qilich-qalqonlarning jarangini eshitgandek bo'laman. **Bularning** barini tarix shamollari uchirib ketdi. Ammo ko'hna devorda qolgan **besht barmoq** izi hali ham ko'rinib turibdi. Bu- **ming yillar** qa'rida yo'q bo'lib ketgan odam qo'lining izi. **Shu** azamat binoga g'isht tergan me'mor qo'lining izi. Odam qo'ligina odamga adabiy haykal qo'yishga **ana o'shanda** ishonganman.

Ushbu matnda o'quvchilar qora bilan yozilgan so'zlarni son va olmoshlarga ajratishlari kerak bo'ladi.

Bundan tashqari son va olmosh mavzusini o'quvchilar qanchalik darajada tushunganini tekshirish maqsadida audiolardan ham foydalansak bo'ladi. Ya'ni o'qituvchi tomonidan aytilgan biror-bir audioli matn o'quvchilarga eshittiriladi. Ushbu matnda son va olmosh so'z turkumi ancha faol qatnashgan bo'lishi kerak. Kim nechta topganligiga qarab o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### 5-sinf o'quvchilari uchun fe'l so'z turkumini o'qitish metodikasi

Fe'l so'z turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan ancha murakkab va o'quvchilarga tushuntirish ham birmuncha qiyin. Chunchi fe'l har doim ham gap oxirida kelib, kesim vazifasida kelmaydi. Gap o'rtasida yoki gap boshida ham kelishi mumkin. Masalan: o'qigan inson hech qachon kam bo'lmaydi. Ushbu gapda fe'l gap boshida ham, gap oxirida ham kelgan. Kecha maktabga kelmaganlar orasida Sobir ham

bor edi. Ushbu gapda esa gap o'rtasida ham kelgan. Bunda ham o'quvchilarga fe'l haqida ma'lumot berib, shu mavzuga doir topshiriqlar orqali mustahkamlab olamiz.

### Topshiriq

Keksa bir qayiqchi qayig'idagi eshkaklarning biriga „Ishon“, ikkinchisiga „Harakat qil“ deb yozib qo'ygan ekan. Buning ma'nosini so'raganlarga u shunday deb javob berarkan:

-Daryodan suzib o'tish uchun har ikki eshkakka ehtiyoj bor. Harakatsiz ishonch, ishonchsiz harakat sizni olg'a yetaklamaydi. Daryoni bitta eshkak bilan suzib o'tib bo'lmaganidek, hayot yo'llariga ham ularning bittasi bilan chiqib bo'lmaydi, har ikkisiga tayanish kerak. („Donolar bisoti“dan)

Ushbu berilgan matnda o'quvchilar fe'l so'z turkumiga doir bo'lgan so'zlarni topishi kerak bo'ladi.

Morfologiyada morfologik shaklning turli nutqiy sharoitlarda voqealanuvchi ma'nolari sintezlangan holda, yaxlit mohiyat sifatida mavjud bo'ladi. Bu yaxlitlik sintaksisda turli sintaktik „obyekt“larga sochilgan holda namoyon bo'ladi. Masalan, qaratqich kelishigi shakli turli sintaktik qurshovlarda turlicha ma'nolarini yuzaga chiqaradi. Bir qurshovda u „qarashlilik“ (mening kitobim), ikkinchi qurshovlarda „qism-butun“ (kitobning varag'i), uchinchi qurshovda „subyekt-harakat“ (ukamning yig'lashi) va h.k ma'nolarni voqealantiradi. Bunday ma'nolarni ko'plab ajratish mumkin. Bu morfologik hodisaning sintaktik hodisalarda sochilgan holda yuzaga chiqishidir. Biroq ular soni sintaksisda qanchalik cheksiz bo'lmasin, morfologiyada u „yig'ilgan“, sintezlangan holda yashaydi. Buni yorug'lik manbai va unda hosil bo'lgan yorug'likka qiyoslash mumkin. Yorug'lik manbaida jamlangan energiya morfologiyaga o'xshasa, tarqalgan yorug'likni morfologiyaning sintaktik sathga sochilishiga qiyoslash mumkin. Bu morfologiyaning sintaksisga zotiy munosabatidir. O'z o'rnida sintaksis ham morfologiyada ana shunday munosabatda bo'ladi. Masalan, sintaktik kategoriya bo'lgan ma'lum bir gap bo'lagi turli morfologik shakllar yordamida ifodalanadi. Uning gap bo'lagi sifatidagi mohiyati morfologik asosdadir.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R „Hozirgi o'zbek adabiy tili“ (morfologiya), Toshkent-2005
2. Jamolxonov H. „Hozirgi o'zbek adabiy tili“, Toshkent-2005
3. Sharofova Matluba Isroilovna. „Morfologiya bo'limini o'rgatishda ilg'or pedagogik texnologiyalar“. „kopilkaurakov.ru-sait dlya uchiteleyeэ